

"O'zkimyosanoat" Ajda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan ichki me'yoriy hujjatlar bo'yicha seminar o'tkazildi

// 05.10.2022

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/korrupsiyaga-qarshi-kurashish-sohasida-qabul-qilingan-ichki-meyoriy-hujjatlar-seminar>



Respublikamizda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida qilinayotgan ishlar ijobiy natijalar bermoqda. Korxonalarga ishga kirayotgan yosh xodimlarni bu borada huquqiy madaniyatini oshirish dolzarb vazifalardan biridir.

Joriy yilning 3-oktabr kuni "O'zkimyosanoat" AJ Komplayens xizmati va jamiyatning xodimlar bilan ishlash bo'limi tomonidan ishga kirgan yosh xodimlar uchun seminar o'tkazildi.

Tadbir davomida yosh xodimlarga O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan qonunlar, qarorlar, farmonlar hamda "O'zkimyosanoat" Ajda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati", "Xizmat odobi kodeksi", "Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish siyosati" va "Sovg'alar berish va olish siyosati" kabi ichki me'yoriy hujjatlar to'g'risida tegishli tushuntirishlar berildi.

Shuningdek, ma'ruzachi seminar ishtirokchilariga korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun belgilangan ma'muriy va jinoiy javobgarliklar to'g'risida ma'lumotlar berdi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining " 61¹-modda, 193¹-modda, 193²-moddalarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarliklar belgilangan.


O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 167-moddasining ikkinchi qismi "g" bandi, 168-moddasining uchinchi qismi "v" bandi, 192/9-modda, 192/10-modda, 205-modda, 209-modda, 210-modda, 211-modda, 212-modda, 214-modda, 243-modda, hamda 301-moddasida ko'rsatilgan jinoyatlar korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar turkumiga kirishi ma'lum qilindi.






Yakunda seminar ishtirokchilari bilan savol-javoblar o'tkazilib, korrupsiyaga qarshi targ'ibot tadbirlari rejali tarzda muntazam o'tkazilishi belgilab olindi.



Uzkimyosanoat
AKSIYADORLIK JAMIYATI

"КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ КУРАЛИШИ СОҲАСИДА ЖАВОБГАЕЛИКЛАР

КОДЕКС → 

	"Миямурий жавобгарлик тўғрисида"ги кодекс 61 ¹ (Нодавлат тижорат ташкилотининг ёки бошқа нодавлат ташкилотининг хизматчисини <i>пора эвазига оғдириб олиш</i>), 193 ¹ (Давлат органининг, давлат иштирокидаги таъхилот ёки фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органининг хизматчисини <i>пора эвазига оғдириб олиш</i>), 193 ² (Давлат органи, давлат иштирокидаги таъхилот ёки фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органи хизматчисининг қонунга хилоф равишида моддий қимматликлар олшин ёки мулкый манфаатдор бўлиши) моддаларида назарда тутилган ҳуқуқбузарликлар;
	Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси 167 (Ўзлаштириш ёки распратна йўли билан талон-торож қилиш) - моддасининг иккинчи қисми «г» банди
	168 (Фирибгарлик)-моддасининг учинчи қисми «в» банди, 192 ³ (Тижоратда <i>пора эвазига оғдириб олиш</i>) 192 ⁴ (Нодавлат тижорат ташкилотининг ёки бошқа нодавлат ташкилотининг хизматчисини <i>пора эвазига оғдириб олиш</i>), 205 (Ҳокимият ёки мансаб ваколатини суиистеъмоз қилиш), 209 (Мансаб сохтакорлиги), 210 (<i>пора олиш</i>), 211 (<i>пора бериш</i>) моддалари
	212 (<i>пора олиш - беришда воситачилиқ қилиш</i>) 214 (Давлат органи, давлат иштирокидаги ташкилот ёки фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органи хизматчисининг қонунга хилоф равишида моддий қимматликлар олшин ёки мулкый манфаатдор бўлиши) -моддалари, 243 (Жинойи фаолиятдан олшган даромадларни легаллаштириш)-моддасида назарда тутилган жиноятларни мансаб мавқеядан фойдаланган ҳолда содир этиш ҳамда
	301 (Ҳокимиятни суиистеъмоз қилиш, ҳокимият ваколатидан ташқарига чиққин ёки ҳокимият ҳаракатсизлиги) - моддасида кўрсатилган жиноятлар.

